

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI O'YIN VA O'YINCHOQLAR YORDAMIDA KENGAYTIRISH**

**Davranova Gulbahor Numondjonovna**

*Osiyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya"*

*kafedrasи dotsenti*

[\(sunny.davranova@gmail.com\)](mailto:sunny.davranova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin va o'yinchoqlar dunyoqarashni shakllantirishda muhim vositadir. O'yin jarayonida bolalar o'z atrofidagi dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar, yangi bilimlar va ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. O'yinchoqlar bolalarga turli ijtimoiy, emotsiyonal va intellektual ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini kengaytirishda o'yin va o'yinchoqlarning roli tahlil qilingan. O'yin va o'yinchoqlar nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, balki ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, kommunikatsiya, hamkorlik, mustaqillik va kreativlikni o'rGANishlariga ham yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, o'yin, o'yinchoqlar, dunyoqarash, rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalar, ijodkorlik, shaxsiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar, kommunikatsiya, hamkorlik, kreativlik, mustaqillik, emotsiyonal rivojlanish, ta'lif, o'qish jarayoni, bolalar psixologiyasi, bolalar madaniyati

## **EXPANDING THE WORLDVIEW OF PRESCHOOL CHILDREN WITH THE HELP OF GAMES AND TOYS**

**Davranova Gulbahor Numondjonovna**

*Teacher at the Department of "Pedagogy and Psychology"*

*Asian International University*

[\(sunny.davranova@gmail.com\)](mailto:sunny.davranova@gmail.com)

**Abstract:** Games and toys for preschool children are an important tool in the formation of a worldview. In the process of play, children expand their perception of the world around them, acquire new knowledge and skills. Toys help children develop various social, emotional and intellectual skills. This article analyzes the role of games and toys in expanding the worldview of preschool children. Games and toys contribute not only to the personal development of children, but also to the study of social relationships, moral values, communication, cooperation, independence and creativity.

**Keywords:** preschool age, play, toys, worldview, development, social skills, creativity, personal development, moral values, communication, cooperation, independence, emotional development, education, learning process, child psychology, children's culture.

**Kirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotga yuzaga keladigan yangi tajribalar, tushunchalar va his-tuyg'ularni anglash orqali qarshi turadi. Dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi — bu bolaning o'z atrofidagi dunyonи tushunishi va unga ta'sir etish jarayonidir. Bu jarayonni kengaytirish va boyitish uchun o'yin va o'yinchoqlar katta ahamiyatga ega. O'yin bolalar uchun dunyo bilan tanishishning, uning ko'rinishlari va muammolarini hal qilishning eng samarali va tabiiy usulidir. O'yinchoqlar esa o'yin jarayonini yanada murakkablashtiradi, bolalarga yangi qobiliyatlar va ko'nikmalarini o'rgatadi. Bola dunyoqarashini shakllantirish o'ziga xos

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

xususiyatga ega hisoblanib, uning yoshi, intellekti va psixologik rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois uning samaradorligini ta'minlashda ham ana shu jihatlar hisobga olinadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar dunyoqarashini kengaytirishning vositalari esa bolalar uchun sevimli bo'lgan predmetlar – bu o'yinchoqlar hisoblanadi. Bolalar o'yinchoqlari – ular uchun nafaqat dunyoqarashni shakllantiruvchi vosita balki, bitmas tunganmas quvonch manbai hamdir. Hayotda o'yinchoqlarni ko'rganda, o'ynaganda quvonmaydigan bolaning o'zi bo'lmasa kerak. Shu bois ota-onalar va kattalar har doim bolalarga o'yinchoqlar sovg'a qilishni, ularning ana shu quvonchlariga sherik bo'lishni yoqtirishadi.

**Asosiy qism.** Dastlab bola o'yinchoqlar orqali tovush, rang va boshqa xususiyatlarni anglay boshlaydi. Ular orqali bolaning eshitish, ko'rish, teri kabi sezgilari rivojlanadi, rang va shakllarni ajrata boshlaydi. Bolaning dunyo bilan muloqot jarayoni ham o'yinchoqlar orqali shakllantirib boriladi. Kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlar: o'zaro hurmat, e'tibor, takalluf, mehmondo'stlik, saxiylik, mehnatsevarlik, do'stlik kabi fazilatlarni ham bolalar o'yinchoqlar orqali egallaydi. Nima yaxshi-yu, nima yomon, axloqli bola qanday bo'lishi kerak?- degan savollarga ham javobni bolalar o'yinchoqlar o'ynash orqali tushunib boradilar.

Demak, o'yinchoq - bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanimaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiylar tarza aks etadi.

Ayrim holatlarda o'yinchoqqa o'yining material asosi sifatida ham qaraladi, biroq o'yinchoq o'yinni yaratishda ishtirok ham etadi, u bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi. Rus pedagoglari o'yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelevikni o'rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamin ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga karatilgan. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini o'yg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Har bir bola zehni, zukkoligi, o'ziga xos nutqi bilan ajralib turadi. Jismonan, ruhan rivojlanayotgan bolaga o'yinchoqlar turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning fikricha, bola hamma o'yinchoqlarni ham o'ynab ketavermaydi. Har bir kichkintoy o'z qiziqishiga qarab o'yinchoq tanlaydi. Og'ir, vazmin bolalar mayda detalli, sho'x, to'polonchi bolalar esa yengil o'ynaladigan o'yinchoqlarga moyildir. Tarbiyachi bolaning har tomonlama rivojlanishini hisobga olib, barcha o'yinchoqlarni o'ynashi uchun muhit yaratishi kerak. O'yinchoq xavfsiz bo'lishi zarur. Guruhlarda tarbiyachi va enaga xloramin eritmasi bilan o'yinchoqlarni yuvib tozalaydi.

O'yinchoq bolalarda – ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondoshuv - o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge><https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

<b>Pedagogik talab:</b>	o'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi; jamiyatimiz g'oyasi nuqtai nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi – pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi.
<b>Gigiyenik talablar:</b>	o'yinchoq qurilishi qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalay olish mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.
<b>Badiiy talablar:</b>	shakl, bo'yoq va bezaklar bilan har tomonlama uyg'unlashuv, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarda idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

O'yinchoq bolada oljanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqelikka nisbatan oljanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba toplashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni o'yg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi:

To'g'ri tanlangan o'yinchoq - bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda ijodiy o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta'sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

- O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo'g'irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. Badiiy san'atning birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg'otadi, estetik tarbiyani toplashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

O'yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushslash harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.

O'yinchoqlarning turlari va ko'rinishlari bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

-  ijodiy-obrazli;
-  texnik o'yinchoqlari;
-  qurish-yasash, qurilish materiallari o'yinchoqlari;
-  ijodiy o'yinchoq va o'yinlar;

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

 sport va harakatli o‘yinlar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar;
 yig‘ma-bo‘linma o‘yinchoqlar;
 teatr va dekorativ o‘yinchoqlar (soya va qo‘g‘irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o‘yinlar uchun kiyimlar, archa o‘yinchoqlari);
 o‘yinchoq-ermaklar;
 ohang chiqaruvchi musiqaviy o‘yinchoqlar;
 qo‘lbola o‘yinchoqlar va o‘yin materialllari, turli-tuman o‘yin jihozlari.

- Ijodiy-obrazli o‘yinchoqlar ijodiy o‘yin uchun foydalaniadi. U bolalarda ijobjiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g‘amho‘rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o‘ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.
- Texnika o‘yinchoqlari bolalarda texnikaga va texnika asboblariga bo‘lgan qiziqish uyg‘otib, ularni o‘z o‘yinlarida qo‘llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko‘rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o‘yinchoqlar yaqin turadi.
- Qurish-yasash o‘yinchoqlari sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o‘yinchoqlarni o‘ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g‘ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi).

Qurilish materialllari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy 2 tipi mavjud:

- a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, selindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to‘plami.
- b) turli blok - devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materialllari. Mayda (stol o‘yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o‘ynashga mo‘ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo‘lishi mumkin.

- Ijodiy o‘yinchoqlarning asosini xalq o‘yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o‘ynashda bola o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o‘yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

- Harakatli o‘yinlarga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar: suv, qum bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlar, koptoklar, arg‘amchilar, chambaraklar, kegли va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

- Musiqali va teatrlashtirilgan o‘yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshitish qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Katta yoshdagи bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

- O‘yinchoq-ovutmachoqlar harakatchan, ko‘pincha ovoz chiqaradigan bo‘ladi. Ular bolalarni o‘zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradi, ijodiylari esa vaqtichog‘lik bag‘ishlaydi.

- Qo‘lbola o‘yinchoqlarni kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

O‘yinchoqlarni materialiga ko‘ra: hunarmandchilik, qo‘lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S. Makarenko o‘yinchoqlarning 3 turini ajratib ko‘rsatgan edi: *tayyor o‘yinchoqlar, yarim tayyor o‘yinchoqlar va o‘yin materialllari*.

Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o‘stiradi. Ikkinci turi boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o‘sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta’minlaydi.

Ushbu tahlilga ko‘ra shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda bolalar o‘yinchoqlarining turlari yanada ko‘payib bormoqda. Dunyoda bir butun o‘yinchoqlar olami yaratilgan desak adashmaymiz. Ularning ichida milliy ruh aks etganlari ham, zamonaviylari ham uchraydi.

O‘yinchoqlar shunday yasalganki, ular orasida dunyodagi barcha mavjudot va narsa-predmetlarni uchratish mumkin: o‘simlik, hasharot, hayvonlar, samalyot, poyezd, kompyuter,

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

multfilm qahramonlari, xullas hayotda nima mavjud bo'lsa, ularning barchasi o'yinchoq ko'rinishda aks etgan. Bugungi davr o'yinchoqlari o'zlarining rangdorligi, e'tiborni o'ziga tortishi bilan ajralib turadi. Biroq, o'yinchoq ishlab chiqarish va tanlashda talaygina va jiddiy muammolar ham uchrab turadi. Shunday o'yinchoqlar ham borki, ular bola hayotiga xavf tug'dirishi, kutilmagan baxtsiz hodisalarga sababchi bo'lishi mumkin. Shu bois ota-onalar va kattalar bolalarga o'yinchoq tanlashda ularning yoshi, jismoniy rivojlanishi, ruhiy holatini inobatga olmog'i lozim. Ayniqsa, o'yinchoqlar ekologik toza mahsulotlardan tayyorlangan bo'lishiga e'tibor qaratmoq kerak.

Demak, bola hayotida o'yinchoqlarning o'rni va ahamiyati juda katta. Ular farzandlarimizning rivojlanishi, kamol topishi va mustaqil hayotga kirib kelishida muhim vosita hisoblanadi. O'yinchoqlarning asosiy vazifasi bolalar faolligini oshirib, muloqotini shakllantirish va tasavvurini rivojlantirishdan iborat. Ularda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarish, dunyoni kashf qilish, shuningdek, bolani atrof- muhit bilan tanishtirishda ham o'yinchoqlarning o'rni beqiyos. Shuning uchun ham ota-onalardan bunday buyumlarni tanlashda juda e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Bolaga o'yinchoq tanlashda quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat qaratish lozim.

*Bolaning yoshiga mosligi.* Yosh o'yinchoq tanlashda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Tanlangan o'yinchoq farzandingizning yoshiga albatta mos tushishi kerak. Bola o'sadi ulg'ayadi. Shu tariqa uning o'yinchoqlari ham yoshiga mos ravishda murakkablashib borishi lozim. O'yinchoqlarning yoshga qarab tanlanishi bolaning aqli, harakatlari, tafakkuri rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki- uch yoshli bolalar uchun turli shakldagi kubik, piramida kabi o'yinchoqlar nihoyatda muhim. Bu yoshda o'yinchoqning funksiyalari juda qiziqarli tuyuladi va uni uzoq vaqt davomida o'ynaydi. Har xil kubiklarni o'ynash, qum solish hamda to'kish kabi turli mashg'ulotlar bolaning harakatini bir maqsadga qaratadi. Avvalo, qo'llar bilan shakllarni his etish, so'ng ko'z bilan uning hajmi, rangini chamalash rivojlanadi, farqli tomonlari solishtiriladi. Kattaroq yoshdagagi bolajonlar uchun aqlni rivojlantiruvchi o'yinchoqlarni tanlagan ma'qul.

*O'yinchoqning sifati.* O'yinchoq tanlashda uning sifatiga ham alohida ahamiyat qaratish lozim. Ularning xavfsiz, ekologik toza, sifatli mahsulotdan yasalganligiga ishonch hosil qilib, rangi, ko'rinishi, shakli, yorlig'i, yo'riqnomasini ko'zdan kechirish foydadan holi bo'lmaydi. Sifatli va toza mahsulotlardan yasalgan o'yinchoqlar bolajonlarning sog'lom va baquvvat bo'lib ulg'ayishida muhim o'rinni tutadi.

*O'yinchoqning xavfsizligi.* Kichkintoylar uchun o'yinchoqlar tanlanganda, ularning juda mayda qismlaridan, kesuvchan va o'tkir qirralardan holi bo'lishi, og'irligi va hajmiga e'tibor qaratish lozim. Bunday turdag'i o'yinchoqlar bolangizga ziyon yetkazishi mumkin. Shuningdek, o'yinchoq xavfsiz materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak. Tabiiy mo'yna va daraxt po'stlog'idan yasalgan o'yinchoqlarni sotib olishga harakat qilish kerak emas. Ko'pincha yumshoq o'yinchoqlarda bakteriyalar to'planib, infeksiya manbayiga aylanadi, shuning uchun ham ular juda kichkina va allergiyaga moyil bolajonlarga tavsiya etilmaydi. Agar musiqiy o'yinchoq sotib olmoqchi bo'lsak, uning ovozi, hajmi va tuzilishiga e'tibor qaratmoq kerak. Yoqimsiz, haddan tashqari baland ovoz bolani qo'rqtib yuborishi mumkin. Bundan tashqari, qo'rqinchli, uni dahshatga soluvchi o'yinchoqlardan ham yiroq bo'lgani ma'qul. O'yinchoq bolada tajovuzkorlik, zo'ravonlik yoki qo'rquv va xavotirni uyg'otmasligi kerak.

*O'yinchoqning qiziqarliligi.* Tanlayotgan o'yinchoq bolaning xohishiga qarab sotib olganingiz ma'qul. Aks holda kichkintoy bunday o'yinchoqdan juda tez zerikib qoladi. Yaxshisi, o'yinchoq sotib olish uchun do'konga bola bilan birga borish va unga yoqqan o'yinchoqni u bilan maslahatlashgan holda xarid qilish kerak.

*O'yinchoqning foydaliligi.* O'yinchoq tanlanganda uning foydalilik jihatiga ham alohida ahamiyat qaratiish lozim. Dizaynerlik va qurilish materiallari, jumboqlar, sport o'yinlari,

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

uskunalar to'plami va kasbga yo'naltiruvchi (oshxona buyumlari, sartaroshlik jihozlari, shifokorlik asboblari kabi) hamda aqlni rivojlantiruvchi, tafakkurini o'stiruvchi, ma'nan va axloqan tarbiyalovchi o'yinchoqlarni xarid qilishga harakat qilish kerak. Bundan tashqari, o'yinchoqlarning qadriyat va mentalitetimizga mos kelishi ham juda muhim. To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolalarning ma'naviy va axloqiy, aqliy, jismoniy, badiiy hamda estetik jihatdan rivojlanishida, sog'lom, barkamol va yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishlarida asosiy vosita hisoblanadi. Tanlangan o'yinchoq eng chiroysi va qimmatbaho bo'lishi shart emas, asosiysi, bolaga yoqishi, uning xarakteri va qiziqishlariga mos tushishiga ahamiyat qaratish kerak. Har holda u kichkintoyning yaqin hamrohi, do'stiga aylanishini unutmasligimiz, bilib-bilmay tanlangan ba'zi bir o'yinchoqlar bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning xudbin, qo'rroq, tajovuzkor va ma'nan qoloq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

**Xulosa.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini o'yin va o'yinchoqlar yordamida kengaytirish, ularning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'yin va o'yinchoqlar bolalarga nafaqat ko'ngil ochish, balki dunyo haqidagi tasavvurlarini boyitish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu tarzda, maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining ijtimoiy, emotsiyonal va intellektual rivojlanishida muhim qadamlarni tashlashlari mumkin. O'yin va o'yinchoqlar, shuningdek, bolalarning atrofdagi dunyoni anglash, muammolarni hal qilish va o'zaro muloqotda samarali bo'lishlariga yordam beradi, bu esa ularning kelajakdagagi muvaffaqiyatlariga asos yaratadi.

O'yin va o'yinchoqlar yordamida bolalar dunyoqarashini kengaytirish, nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishning eng muhim qismidir.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Shonazarov, T. S. Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.-2018.
2. Jalilova, M. F. O'yinchoqlar va o'yinlarning bolalar tarbiyasidagi o'rni. Tashkent: Fan. - 2020.
3. Baxromov, F. T. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'yinchoqlar orqali tarbiya qilish. Toshkent: Navro'z. -2022.
4. Numondjonovna, D. G. (2021). The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
5. Numondjonovna, D. G. (2022). The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 54-57.
6. Numondjonovna, D. G. (2021). The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(7), 28-31.
7. Davranova Gulbahor, N. (2022). Advantages of using modern information technologies in teaching russian language for primary school students. *American journal of social and humanitarian research*, 3(1), 333-338.
8. Davranova, G. N. (2022). Use of Information Technologies in Primary School Russian Lessons. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(6), 73-78.
9. Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang 'ich ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 144-146.
10. Davranova, G. N. (2023, January). THE DEVELOPMENT OF PUPILS'SPEECH IN RUSSIAN LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC*

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

*CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 1, pp. 147-154).*

11. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 363-367.
12. Numondjonovna, D. G. (2024). SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 197-202.
13. Numondjonovna, D. G. (2024). FORM, METHOD, TOOLS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Miasto Przyszlosci*, 47, 495-499.
14. Numondjonovna, D. G. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rus tilida lug'atlar bilan ishslash jarayonida kreativligini oshirish. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 168-170.
15. Davranova, G. N. (2023). Theoretical And Practical Aspects Of Applying Information Technology In Teaching The Russian Language. Innovative Development In The Global Science, 2(10), 106-111.
16. Davranova, G. N. (2023). Using Multimedia Technologies In Russian Language Lessons In Elementary Grades: The Way To More Effective Learning. The Role Of Science And Innovation In The Modern World, 1(8), 48-53.
17. Давранова, Г. (2023). Современная ситуация и возможности использования информационно-коммуникационных технологий в обучении русскому языку учащихся начальных классов. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 219-223.
18. Davranova, G. (2024). MONTESSORI VA VALDORF TIZIMIGA ASOSLANGAN BOLALAR BOG'CHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(9), 477-489.
19. Numondjonovna, D. G. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA RUS TILINI O'QITISHNI AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI. Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III, 87-93.
20. Numondjonovna, D. G. ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONI VA UNING PEDAGOGIK IMKINOYATLARI. EDAGOGIK AHORAT.